

ZAMONAVIY TARAQQIYOTDA ILM-FAN VA MADANIYATNING O‘RNI

Respublika ilmiy-amaliy
konferensiyasi



1. Aniq fanlar
2. Tabiiy fanlar
3. Texnik fanlar
4. Iqtisod fanlari
5. Pedagogika
6. Filologiya
7. Sanat va madaniyat
8. Kitobxonlik yo‘nalishi
9. Ijtimomy-Gumanitar
10. Sport
11. Tibbiyot

Volume 2 Issue 5 2023

<https://academics.uz/index.php/Konferensiya>



**ZAMONAVIY TARAQQIYOTDA ILM-FAN VA
MADANIYATNING O‘RNI RESPUBLIKA ILMIY
KONFERENSIYASI
30-NOYABR, 2023yil**

**THE ROLE OF SCIENCE AND CULTURE IN MODERN
DEVELOPMENT SCIENTIFIC CONFERENCE OF THE
REPUBLIC
NOVEMBER 30, 2023**

**РОЛЬ НАУКИ И КУЛЬТУРЫ В СОВРЕМЕННОМ РАЗВИТИИ
НАУЧНАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ РЕСПУБЛИКИ
30 НОЯБРЯ 2023 ГОДА**

Toshkent-2023

Тахририят**О. Муҳаммадиева**

Терду Фалсафа кафедраси уқитувчиси
Фалсафа фанлари буйича фалсафа
доктори (PhD)

У. Тўлаков

Термиз давлат университети
Иқтисодиёт ва туризм факультети
Молия кафедраси катта ўқитувчиси

Ф. Холлиев

Термиз давлат университети Физика-
математика факултети, Амалий
математика ва информатика кафедраси
ўқитувчиси

Т. Мамаджанова

Иқтисодиёт ва менежмент кафедраси
катта уқитувчиси. (PhD)

М.Холмўминов

Ўзбекистон Республикаси Маданият
вазирлиги Илмий-методик маркази
Бош мутахассиси

Editorship**O. Muhammadiyeva**

**Teacher of the Department of
Philosophy, Termez State
University. Doctor of
Philosophy(PhD)**

U. Tulakov

**Teacher of Department of Finance
Faculty of Economics and
Tourism, Termez State University**

F. Xollieva

**Teacher of Department of Applied
Mathematics and Informatics,
Faculty of Physics and
Mathematics,
Termez State University**

T. Mamajanova

**Head Teacher of Department of
Economics and Management.
(PhD)**

M.Kholmominov.

**Ministry of Culture of the
Republic of Uzbekistan Scientific-
methodical center Chief specialist**

ZAMONAVIY TARAQQIYOTDA ILM-FAN VA MADANIYATNING O‘RNI

MUNDARIJA

<u>1</u>	Gulnoza Rayimdjanova	KLASTER SIYOSATI SAMARADORLIGINI BAHOLASH USULLARI	<u>5</u>
<u>2</u>	Yuldasheva Saodat Arislanovna Sobirov Azizbek Akbarovich Turayev Diyorbek Uktamovich	ANALYSIS OF THE NATIONAL INCOME OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN	<u>8</u>
<u>3</u>	Yuldasheva Saodat Arislanovna Sobirov Azizbek Akbarovich Turayev Diyorbek Uktamovich	NATIONAL INCOME OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN AND FACTORS AFFECTING ITS GROWTH	<u>14</u>
<u>4</u>	Atakov Ibrat	“TARBIYA” FANINI O‘QITISHNING METODIK XUSUSIYATLARI	<u>19</u>
<u>5</u>	Yuldasheva Saodat Arislanovna Turayev Diyorbek Uktamovich Sobirov Azizbek Akbarovich	THE ROLE OF INVESTMENT AND MODERNIZATION IN THE DEVELOPMENT OF THE ECONOMY OF UZBEKISTAN	<u>26</u>
<u>6</u>	Ataxanova Gulnar	ROLE OF NEW INTERACTIVE METHODS IN ENGLISH LANGUAGE TEACHING	<u>32</u>
<u>7</u>	Асадуллаева Наргиза Сайфуллаевна	БЎЛАЖАК БОШЛАНГИЧ СИНФ ЎҚИТУВЧИЛАРИНИ МАНТИҚИЙ КОМПЕТЕНЦИЯЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ	<u>37</u>
<u>8</u>	Эшпулатова Хусния Мирғолиб қизи	АХБОРОТ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ ВА ТАБИЙЙ ТИЛЛАРНИ БИР - БИРИГА ЯҚИНЛАШТИРИШ МАСАЛАЛАРИ	<u>41</u>
<u>9</u>	Жўраева Мадина Абдужалиловна	АРАБ КЛАССИК АСАРЛАРИДА “СЎЗ” ТУШУНЧАСИ	<u>44</u>
<u>10</u>	Rahmonova Dono Qaxarovna	IMPROVING THE METHODOLOGY OF PREPARING A FUTURE CHEMISTRY TEACHER FOR PROFESSIONAL ACTIVITY IN A MODERN EDUCATIONAL ENVIRONMENT	<u>48</u>
<u>11</u>	Abdullayeva Farog'at Erkinovna Qodirova Muhayyo Axmed qizi	МАТЕМАТИКА ДАРСЛАРИДА ИНТЕРФАОЛ МЕТОДЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ	<u>52</u>
<u>12</u>	Dusmatov Durbek Rustamjon ogli	АХБОРОТ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ ВА КИБЕРМАКОНДАГИ ЖИНОЯТ ТУШУНЧАСИ	<u>55</u>
<u>13</u>	Boboyeva Muyassar Norboyevna	МАТЕМАТИК ИҚТИДОРГА ЕГА О‘ҚУВЧИЛАРГА ХОС ГИПОТЕТИК ХИСЛАТЛАР ВА УЛАРНИ АНИҚЛАШ	<u>60</u>
<u>14</u>	Sarsenbaeva Nazlimxan Matekeyevna	ОПТИК МОДУЛЯТОРЛАР	<u>63</u>
<u>15</u>	Jumayeva Charos Ilhomjon qizi	“CHARXPALAK” VA ”UCHTA TO‘G‘RI BITTA NO‘TO‘G‘RI” METODLARINING “JEGALKIN KO‘PHADI” MAVZUSINI O‘RGATISHDAGI O‘RNI	<u>66</u>
<u>16</u>	Axmatjanov Ravshanjon Nematjanovich Ismailov Ergash Ulug‘bekovich	DIZELLARNING SIQILGAN TABIIY GAZ YONILG‘ISIGA O‘TKAZISHNING ISTIQBOLI.	<u>69</u>
<u>17</u>	Toshmirzayeva Muhayyo Maxkambayevna Toshmirzayeva Muhayyo Maxkambayevna	ОТА-ОНАЛИК ВА FARZANDLIK BURCHLARI	<u>74</u>
<u>18</u>	Norpulatov Samandar Jumanov O'gabek	ONLAYN TA'LIM PLATFORMALARI VA ULARNING DUNYOGA TA'SIRI	<u>81</u>

MATEMATIK IQTIDORGA EGA O‘QUVCHILARGA XOS GIPOTETIK XISLATLAR VA ULARNI ANIQLASH

Boboyeva Muyassar Norboyevna

m.n.boboeva@buxdu.uz

Buxoro davlat universiteti

ANNOTATSIYA. Ushbu maqolada matematik iqtidorga ega o‘quvchilarga xos gipotetik xislatlar va ularni aniqlash yo‘llari haqida fikr yuritiladi.

Biz bu tezisda umumiy o‘rta ta’lim maktabi bitiruvchilari orasidan matematik iqtidorga ega o‘quvchilarni ajratib olishda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan hislatlarni aniqlash bilan bog‘liq fikr va ilmiy izlanishlarimiz natijalarini bayon etamiz.

Iqtidorli o‘quvchilarni ajratib olish uslublarini yaratish uchun biz avvalo, iqtidor o‘zi nima, u o‘quvchidagi qanday hislatlarda namoyon bo‘ladi degan savollarga javob berishimiz zarur. Bu savolga bugungi kunda to‘la qonli javobning o‘zi yo‘q. Aniqroq qilib aytganda iqtidor kategoriyasini ilmiy o‘rganishda tajribalar asosida olingangipotetik ta’rif yoki matematik iqtidor tuzilishining gipotetik komponentlaridan foydalaniladi. Bizning bu yo‘nalishdagi izlanishlarimizning asosiy natijalari tajriba sinov asosida olingan bo‘lib, ayrim hollarda nazariy xulosalardan ham foydalanishga to‘g‘ri keldi.

Turli matematik qobiliyatli o‘quvchilar tomonidan maxsus tanlab olingan matematik testlarni yechish jarayonlarini sonli hamda sifatli tahlil qilish matematik iqtidor tajriba sinov orqali o‘rganishning asosini tashkil etadi. Tajriba sinov ishlari davomida umumiy o‘rta ta’lim maktablarini bitiruvchi sinflari o‘quvchilaridan matematik iqtidorni aniqlovchi testlar olindi. Shu jarayonda testlarni yaroqlilik darajasi ham aniqlandi va zarurat tug‘ilganda yaroqsizlari almashtirildi. Testlar tuzishda albatta matematik iqtidorning biz tomonimizdan aniqlangan gipotetik tuzilishidan foydalanildi.

Matematik iqtidorning gipotetik tuzilishini quyidagi usulda aniqladik. Birinchi navbatda bu yo‘nalishdagi ilmiy izlanishlar xulosalaridan foydalanildi. [1;2].

ZAMONAVIY TARAQQIYOTDA ILM-FAN VA MADANIYATNING O‘RNI

Shundan so‘ng biz ham V.A. Kruteskiy izidan borib, mulohazalarni umumlashtirib, matematik iqtidorning besh guruhdagi hislatlarini tanlab oldik va so‘rovnomalar o‘tkazib V.A. Kruteskiy tomonidan taklif qilingan matematik iqtidorning gipotetik tuzilishiga muhim qo‘shimchalar kiritildi. Shunday qilib, biz matematik iqtidorning quyidagi gipotetik tuzilishiga ega bo‘ldik:

1) Yaxshi xotira, algebraik hisoblash qobiliyati, ya’ni harfli ifodalarni shaklini almashtirish, tenglamalar yechishning eng qulay va eng qisqa usullarini topish qobiliyati;

2) Matematik materiallarni umumlashtirish, muhim belgilarni nomuhim belgilardan ajrata olish, tashqi ko‘rinishdan turlicha bo‘lgan materiallarda umumiylikni ko‘ra olish qobiliyati;

3) Sonli va simvulli belgilarni umumlashtirish qobiliyati;

4) “Teng – teng emas”, “katta – kichik”, “baland – past”, “ustida – tagida”, “ungacha – keyin”, “ko‘p – oz”, “uzoq – yaqin”, “bo‘lak – butun” kabi va umuman taqqoslash, bahslashishni yoqtirish, ketma – ket, to‘g‘ri taqsimlangan mantiqiy fikrlash san’ati;

5) Obyektni turli qarashlar nuqtai – nazaridan o turli qarashlar nuqtai – nazaridanganish turli burchaklar, obyekt va uning tasviri orasidagi bog‘lanishlarni tiklash qobiliyati;

6) Matematik xotira. Matematikaning o‘ziga xosligidan kelib chiqib umumlashtirish, formal tuzilishlar, mantiqiy zanjirlarga asoslangan xotira qobiliyati;

7) O‘zlarining diqqatini asosan obyektning proporsiya, burchak va masofalarning o‘lchovi kabi miqdoriy xarakteristikalariga qaratadigan o‘quvchilar;

8) Mumkin bo‘lgan barcha kombinatsiyalar va manipulyatsiyalarga, bo‘laklarga ajratish va bir butun qilib yig‘ish, muhokama jarayonini qisqartirish va bir nechta harakatlarni bir harakatga almashtirish, ixcham tizimli fikrlash qobiliyati;

9) Geometriya kursining ta’rif, teoremlari va ularning isbotlarini yaxshi o‘zlashtirish, fazoviy tasavvurga ega bo‘lish qobiliyati;

10) Fikrlash jarayonini teskarilatish, to‘g‘ridan aksincha fikrlashga o‘ta olish qobiliyati;

11) Matematik materialni formallashtirish qobiliyati, mazmundan shaklni ajrata olish, xususiy sonli va fazoviy shakllardan abstrakt holatga o‘ta olish, formal tuzilish, aloqali tuzilishlarni umumlashtira olish;

12) Fikrlashdagi moslashuvchanlik, bir aqliy ish faoliyatidan boshqasiga o‘ta olish, shablon va trafaretlardan holi.

Fikrlashning bu xususiyati matematikada ijodiy izlanishlarda muhim.

Adabiyotlar:

1. Krutetsky V.N. The study and development of schoolboys and schoolgirls abilities. “The Tohokn Journal of educational psychology”, vol. I, No1, 1963 g. В.А. Крутецкий.

2. Колмогоров А.Н. Поиск таланта. “Известия”, 1963 г. №83

3. Бобоева М.Н. Matematika fanini o‘qitish jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanish. Pedagogik akmeologiya. Maxsus son (2022) 6-12 b.

4. Boboyeva M.N. Increasing creative activity of students by application of methods of analysis and synthesis in mathematics lessons. ResearchJet Journal of Analysis and Inventions. 3:05 (2022), p.67-75.

5. Boboyeva M., Qutliyeva Z. (2019). Formation of elementary mathematical concepts in preschool children. *J. Global Research in Math. Archives*, 6(11),10-12.